



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**„GLOBALLASHUV DAVRIDA TIL VA TA‘LIM:
NAZARIYA VA AMALIYOT“**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyadagi
ishtiroki uchun
Nasirdinova Oydinniso Dagarovna**

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

Qarshi davlat universiteti rektori:

D.X.Nabiyev



**2025-yil 21-oktabr.
Qarshi, O‘zbekiston.**



doi Digital object
identifier

**Google
Scholar**

OpenAIRE



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“GLOBALLASHUV DAVRIDA TIL VA TA'LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIY ANJUMAN



QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

21-23-oktabr, 2025-yil



GLOBALLASHUV DAVRIDA TIL VA TA’LIM: NAZARIYA VA AMALIYOT

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya

Qarshi, O‘zbekiston

QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

2-TO‘PLAM

2025-yil 21-oktabr



O'ZBEK TILIDA FE'L NISBAT SHAKLLARINING QO'LLANISH DARAJASI ANIQLASH

Nasirdinova Oydinniso Dagarovna
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17441009>

Annotatsiya. O'zbek tilida fe'l nisbat shakllarining qo'llanish darajasini aniqlash ularning aniq miqdoriy-statistik tadqiqi natijasida faol-nofaollik belgisiga ko'ra darajalanishni yuzaga chiqaradi. Nisbat shakllari nutqda faollik darajasiga ko'ra barcha umumiy fe'l kategorial shakllari ichida va faqat nisbat affikslararo darajalanadi. Nisbat shakllarida uchrovchi omonimlik va fe'l morfemik tuzilishi lingvostatistik jarayonda ba'zi murakkabliklarni yuzaga chiqaradi.

Kalit so'zlar: fe'l, nisbat shakllari, aniq nisbat, o'zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbat, darajalanish, lingvostatistika.

Abstract. Determining the degree of use of verb voice forms in the Uzbek language, as a result of their precise quantitative-statistical study, gives rise to gradation according to the active-inactive feature. Forms of voice are graded within all general categorical forms of verbs and only between voice affixes according to the degree of activity in speech. Homonymy and the morphemic structure of the verb in the forms of voice create some difficulties in the linguostatistical process.

Keywords: verb, voice forms, direct voice, reflexive voice, reciprocal voice, reciprocal voice, gradation, linguostatistics.

O'zbek tilida fe'l so'z turkumining salmoqdor lug'aviy kategorial shakllaridan biri nisbat shakllaridir. Fe'l so'z turkumi miqyosida nisbat shakllarining qo'llanish darajasini aniqlash hozirgi o'zbek tili grammatikasi, funksional lingvistika va korpus tilshunosligida kesishgan dolzarb mavzu hisoblanadi. “Nisbat kategoriyasi harakatning subyekt (bajaruvchi)ga munosabatini ifodalaydi. Bu munosabat maxsus grammatik shakl bilan yuzaga chiqadi. Nisbat kategoriyasi fe'lning bo'sh subyekt valentligini to'ldirib, muayyanlashtirib uni nutqqa moslaydi.”¹

O'zbek tilida fe'lga oid 100 ga yaqin kategorial morfologik shakllar bo'lib, nisbat shakllari umumiy qo'shimchalarning 30 % – 29 tani tashkil etadi. Nisbat shakllarining besh turi – aniq, o'zlik, majhul, orttirma va birgalik nisbat shakllari ham o'z ichida shu turga mansub affikslarning miqdoriga ko'ra farqlanadi:

¹Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. 251-б.



	Nisbat kategoriyasi	Nisbat qo'shimchalari	Nisbat qo'shimchalarining miqdori
1	Aniq nisbat	(0)nol shakl	-
2	O'zlik nisbat	-n (<i>burkanmoq</i>), -in (<i>kiyinmoq</i>), -l (<i>chayqalmoq</i>), -il (<i>cho'zilmoq</i>), kammahsul -sh (<i>joylashmoq</i>), -ish (<i>qizishmoq</i>)	6
3	Majhul nisbat	-n (<i>saylanmoq</i>), -in (<i>qilinmoq</i>), -l (<i>buralmoq</i>), -il (<i>ijro etilmoq</i>)	4
4	Orttirma nisbat	-t (<i>o'qitmoq</i>), -it (<i>qo'rqitmoq</i>), -tir (<i>kuttirmoq</i>), -dir (<i>kuldirmoq</i>), -sat (<i>ko'rsatmoq</i>), -ar (<i>chiqarmoq</i>), -ir (<i>pishirmoq</i>), -iz (<i>tomizmoq</i>), - az (<i>chiqazmoq</i>), -kaz (<i>o'tkazmoq</i>), -kiz (<i>bitkizmoq</i>) -gaz (<i>yurgaz</i>), -qaz (<i>tutqazmoq</i>), -g'az (<i>turg'azmoq</i>), -qiz (<i>yutqizmoq</i>), -giz (<i>kirgizmoq</i>), -g'iz (<i>turg'izmoq</i>)	17
5	Birgalik nisbat	-sh (<i>o'qishmoq</i>), -ish (<i>kulishmoq</i>)	2
		Jami:	29

Aniq nisbat muayyan shaklga ega emas, o'zlik va majhul nisbat shakllari o'zaro shakldosh, orttirma nisbat qo'shimchalarining variant va invariant shakllari eng ko'p, birgalik nisbat shakllari ham fe'lga xos harakat nomi shakllari bilan omonim munosabatdaligi bilan birlamchi grammatik xususiyatlarini namoyon etadi.

Nisbat shakllarining nutqdagi faol va nafaoligini aniqlash uchun maxsus korpus asosida lingvostatistik tahlil qilinishi maqsadga muvofiq, boisi "til birliklarining nutqda qo'llanish darajasi ularning faol yoki nafaollik belgilarini aniqlashtiradi".² Bir million so'zdan ortiq matnlarning jamlanmasi asosida yaratilgan O'zFe'lKorpus orqali chastotasi aniqlanayotgan shakllar bilan ishlashda bir qancha murakkabliklar ham yuzaga chiqadi:

1) **Nisbat shakllarining omonimligi.** O'zlik va majhul nisbatga oid -n(-in), -l(-il) qo'shimchalari o'zaro omonim bo'lib, ular barcha fe'llarga ham qo'shilavermaydi. Chastotasi aniqlanishdan oldin ular qo'shila oladigan alohida fe'llar ro'yxati tuziladi. Ayrim shakllarga har ikkala nisbat qo'shimchalari ham qo'shiladi (*bo'g'ildi, bosildi, siqildi, buzildi*) ularni qaysi nisbatga mansubligi korpusdagi matnlarni birma-bir ko'zdan kechirish natijasida aniqlashadi. O'zlik nisbatga mansub -sh (-ish) affikslari

² Nasirdinova O. Lingvostatistika va fanlar integratsiyasi // O'zbek filologiyasi: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2025. 31-b.



miqdoran kam bo'lsa-da (*joylashmoq, o'ralashmoq, tishlashmoq, bo'shashmoq, qatnashmoq kabi*), birgalik nisbat shakllari bilan bir nutqiy voqelanishga uchraydi, ularni ham ajratish uchun matnlar alohida ko'rib chiqiladi. Birgalik nisbat qo'shimchalari -sh (-ish) bilan harakat nomi affikslari shakldoshlik hosil qilishi statistik jarayonni sekinlashtiruvchi omillardan bo'lib, “*fe'l +nisbat shakli + (-di)*” strukturasi orqali saralangan fe'llarning barchasiga harakat nomi shakllari qo'shiladi, ammo birgalik nisbat shakllari bundan mustasno.

2) ***Fe'l morfemik tarkibining murakkabligi.*** Murakkab so'z yasovchilar orqali hosil bo'lgan fe'llarga ayrim nisbat shakllari qo'shilgan holatda o'zbek tilining izohli lug'atida mavjud. Ularni saralangan tanlanma ro'yxatdan olib tashlash yoki ikki marta nisbat shakllarini qo'shib ko'rish ham bahsli jarayon. Ayrim fe'llar orttirma nisbat qo'shimchalarisiz majhul nisbat affikslarini qabul qilmaydi, bular, asosan, -*lash* affiksi bilan yasalgan fe'llardir: *aktivlashtirildi, industriyalashtirildi, eritildi, ijtimoiylashtirildi, ekranlashtirildi, avtomatlashtirildi, elektrlashtirildi, biriktirildi, ilohiylashtirildi* – O'TILDagi ba'zi fe'llar orttirma nisbat shaklida ham berilishiga sabab shu bo'lishi mumkin. Bu haqida Sh.Shahobiddinova shunbay fikr yuritadi: “Nisbat ma'nosida lug'aviy jihatning mavjudligi, to'g'rirog'i, boshqa kategoriyalarga nisbatan kuchliligi (ya'ni lug'aviy jihat boshqa grammatik-morfologik kategoriyalarda ham, shubhasiz, mavjud) uning ushbu jihatiga alohida e'tibor zarurligini ko'rsatadi”³.

Nisbat shakllararo ichki darajalanishida nutq uslublaridagi taqsimoti ham turlicha bo'lib, statistik natijalarga ko'ra “*fe'l +nisbat shakli + (-di)*” strukturasi o'zlik nisbatda -*il* shakl badiiy uslubda eng faol, rasmiy uslubda nofaol shakl sifatida nutqda voqelanadi. Majhul nisbat shakllari orasida ham -*il* shakli ilmiy uslubda eng faol, rasmiy uslubda esa nofaol hisoblanadi. Ayrim morfologik birliklarning nutqdagi darajalanishi qaysi morfologik struktura qolipida chastotasini aqlashga ham bog'liq. Majhul nisbatning -*il* shakli “*fe'l+nisbat shakli+(-sin)*” qolipida olinsa, rasmiy uslubda eng faol ko'rsatkichga ega bo'ladi.

Demak, o'zbek tilida nisbat shakllarining darajasini aniqlashdagi ayrim murakkabliklar o'zbek tilining morfologik jihatdan murakkab agglyunativ til ekanli uchun ham kelib chiqadi. Shuning uchun ham so'zlar kabi morfologik shakllar grammatik, lug'aviy ma'nolar qurshovida alohida, sinchkovlik bilan tadqiq etiluvchi birliklardir. Ayni shu xususiyat nisbat shakllarini sifat va miqdoriy tahlillarida e'tiborga molik jihatdir.

³ Шаҳобиддинова Ш.Х. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши. Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. -Т., 2001. -31-6.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musulmonova N. Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma'no (zamon va mayl kategoriyalari asosida): Filol. fanlari nomzodi...dis. – Toshkent, 2007. – 103 b.
2. Nasirdinova O. Lingvostatistika va fanlar integratsiyasi // O'zbek filologiyasi: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2025. 30 – 33-b.
3. Suleymanova K. Morfologik birliklar sistemasida nisbat kategoriyasining o'ri. F.f.n. avtoreferat. – Farg'ona, 2004.
4. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 391 б.
5. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши. Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. -Т., 2001. – 50 б.





Mundarija		
No	Sarlavha	Sahifa
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
1.	MILLIY RUH, MILLIY ONG VA MILLIY TIL MUAMMOSI Polvonov Abbos Ulug'bekovich	5-10
2.	O'ZBEK TILIDA FE'L NISBAT SHAKLLARINING QO'LLANISH DARAJASI ANIQLASH Nasirdinova Oydinniso Dagarovna	11-14
3.	TILSHUNOSLIKDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI Berdimurodova Sohiba G'ulom qizi	15-18
4.	O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI To'rayeva Maftuna Abdiraim qizi	19-21
5.	O'ZBEK VA JAHON TILSHUNOSLIGIDA ORTOLOGIK TADQIQOTLAR Ruzimurodova Sadinura Muhiddin qizi	22-24
6.	SOMATIK LEKSEMALARDA PARTONIMIK MUNOSABAT K. T. Jumayeva	25-30
7.	ORTOLOGIYA NAZARIYASI VA UNING ADABIY TIL ME'YORLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI Fayziyeva Maftuna Norpo'lat qizi	31-33
8.	GESHTALT NAZARIYASINING ILMIY ASOSLARI VA BADIY MATNDAGI QO'LLANISH XUSUSIYATLARI Niyozova Gulhayo	34-37
9.	DIALOGIK NUTQ TARKIBIDAGI NUTQIY AKTLAR NAZARIYASIGA ILMIY ASOSIY YONDASHUVLAR Jumayeva Mohinur Jabbor Qizi	38-40
AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI		
10.	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA HOLAT FE'LLARINI KOMPYUTER LINGVISTIKASI ASOSIDA O'RGANISH Shamsiddinova L.S.,	41-43
11.	SUD DISKURSIDA NUTQIY AKTLARNING IFODALANISHI Z.I.Esanova	44-47
12.	PUBLITSISTIK MATNNING PRAGMALINGVISTIK TALQINI M.Sayimova	48-50
13.	O'ZBEK TILIDA ELLIPSIS HODISASINING ZAMONAVIY TILDAGI NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI VA ULARNING PRAGMATIK FUNKSIYALARI Gulnoza G'iyosiddinova	51-54
14.	ZEBO MIRZO SHE'RIYATINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI Hakimova Nargiza	55-58
15.	O'ZBEK TILIDAGI XUSHMUOMALALIK NUTQINING PRAGMATIK TAHLILI D.Maxmudova	59-62
16.	NURIDDIN EGAMOV SHE'RIYATIDA SHAKLDOSH SO'ZLARGA XOS BADIY IMKONIYATLARNING VOQELANISHI Raxmatova Shoxida Turaqulovna	63-66
17.	MAKTABDA SO'Z TURKUMLARINI O'QITISH MUAMMOLARI Baxriddinova M.M., Mirziyeva G.	67-71
18.	ZID MA'NOLI SO'ZLAR O'QUV IZOHLI LUG'ATINI TUZISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI Axmedova Dildora Dilshodovna	72-75
19.	COMPARATIVE ANALYSIS OF HEROINES OF MODERN UZBEK AND ENGLISH LITERATURE Berdiyev Shaxboz Tolibovich	76-78